

## TANBUR CHOLG'USIDA IJROCHILIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH USLUBLARI

*Chorshanbiyev Jasur Shavkat o'g'li*  
*Termiz davlat pedagogika instituti*  
*Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi*  
*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tanbur cholg'u asbobining kelib chiqish tarixi ijrochilik uslublari, musiqa cholg'ulari orasida tanbur cholg'u asbobining o'rni va ahamiyati haqida yozilgan.

Qadimda barcha xalqlarda sozandani tarbiyalash yakka holda, ustoz-shogird uslubida amalga oshirilgan. Ayniqsa, Sharq xalqlarida bunga katta e'tibor bilan qaralgan. Ushbu an'ana asrlar sinovidan o'tib bizgacha yetib kelgan va hozirgi davrda ham eng samarali o'ziga xos uslub sifatida tan olinadi. Darsni yakka holda o'tish, ya'ni har bir o'quvchiga alohida yondashishda o'qituvchidan juda katta mas'uliyat talab qilinadi.

Ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, topshirilgan vazifani katta mas'uliyat bilan bajarishga o'rgatish ijodkorlik va mehnatsevarlikka olib keladi. Bunda uyda tayyorlanadigan dars sinfda o'tkazilgan mashg'ulotning davomi ekanligini o'quvchi chuqur anglab yetishi, uning vaqti va davomiyligini o'quvchining o'zi mustaqil rejalashtirishi hamda undan samarali foydalanishi zarur.

Cholg'u asbobini mohirona chalish uchun sozanda o'z cholg'usini, tanlagan kasbini sevishi, muntazam o'z ustida ishlashi, ayniqsa, notaga qarab chalish malakasini o'stirib borishi, gammalar, turli mashqlar, shtrixlar, ijro bezaklarini o'zlashtirish ustida tinimsiz shug'ullanishi zarur.

Barcha ijrochilik mutaxassisliklari singari tanbur ijrochiligida ham o'quvchilar qobiliyatini texnik va badiiy jihatdan uzluksiz rivojlantirish tamoyillari mavjud. O'quvchilarning badiiy malaka va tasavvurlarini shakllantirish uchun badiiy asarlar zarur bo'lsa, o'sha asarni sadolantirish, texnik mahoratini ta'minlash uchun esa gamma va mashqlar juda muhim. Ammo ular xoh uy vazifasi yoki darsda bo'lsin, alohida badiiy mashg'ulotdan ajralgan holda emas, balki bir butun badiiy maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo'lmog'i lozim. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi esa maktab dasturiga kiritilgan asarlar repertuari bilan muntazam ishlash, ularni tahlil qilish, ijro yo'llarini izlash, o'rganilayotgan asarlarga jo'r bo'lish mahoratlarini ham orttirib borishi lozim.

Tanburda mashqlar chalishdan asosiy maqsad chap qo'l barmoqlarini to'g'ri qo'yish, tordan torga o'tish, pozitsiyalar almashishini o'zlashtirish, to'g'ri shtrixlarga ega bo'lish hamda tovushlarni ritmik jihatdan bir tekisda ravon va mutanosib kelishini

ta'minlashdir.

Ijrochilik mahoratini rivojlantirishda nafaqat gammalar balki, mashqlarning ham ahamiyati katta bo'lib, bunda intervallari keng, sakrashli, barmoqlar uchun noqulayroq applikatorani o'zlashtirish, simdan simga o'tish, turli xil bezaklarni qo'llash uchun mo'ljallangan mashqlar katta rol o'ynaydi.

Etyudlarning mashqlardan farqi shundan iboratki, ular asosan ijrochilik mahoratining ma'lum jihatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladi. Shuningdek, badiiy konsert ijrochilik mahoratini ko'zlab ijod qilingan etyudlar ham ko'plab uchraydi.

Mashg'ulotlar davomida o'qituvchi talabaga etyudlarning asosiy uslubiy yo'nalishini aniq belgilab, ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda yozilganligini tushuntirishi maqsadga muvofiq. Bunda ijrochilik mahorati badiiy asarning mazmunini ochishdagi maqsad emas, balki vosita ekanligini o'quvchilar tushunib yetmog'i lozim. Talabani mustaqil tayyorlanishida ijrochilik texnikasini rivojlantiruvchi mashg'ulot uchun vaqtni to'g'ri taqsimlashi ham katta ahamiyatga ega.

Talabalar tanburni o'rganishda chap qo'l barmoqlarini to'g'ri qo'yishni o'zlashtirish va mustahkamlash, pozitsiyalar almashishi va to'g'ri shtrixlarga ega bo'lish ko'nikmasini egallash, tanbur grifida notalarning joylashishini erkin topa olish, notani o'qish va tordan-torga o'tish kabi murakkab jarayonni diqqat bilan uddalashlari kerak.

Chap va o'ng qo'ldagi turli harakat va uslublarning shakllanishi va o'sishi jarayoni ancha murakkabdir. Shuning uchun ijro texnikasi ustida ishlaganda har bir qo'lni alohida, shuningdek, ikkala qo'lni birga ma'lum maqsad va vazifaga bo'ysundirishga erishish lozim. Ana shu va boshqa sifatlarni shakllantirgandan keyin ijro sur'atini tezlashtirish mumkin.

Ijro vaqtida qanday shtrix tanlab olish asarga turlicha xarakter va joziba beradi. Ijro malakasini shakllantirishda shtrixga alohida e'tibor berish kerak. Tanburda turli shtrixlarni o'zlashtirish uchun dastlab ochiq torlarda mashq qilish tavsiya qilinadi. Bunda asosiy e'tibor faqat o'ng qo'lga qaratiladi.

*Yakka zarb, qo'sh zarb, teskari zarb, rez, qisqa rez, zarbi parron* kabi shtrixlarning har biri ustida alohida mashq qilish zarur.

Har bir sozandaning musiqiy asar ustida ishlashi o'ziga xos bo'lib, ushbu jarayonga har kim o'zicha yondashadi. Ammo musiqiy asarlar ustida ishlash jarayonining barcha uchun umumiy tomonlari mavjud. Buni asosan uch bosqichga taqsimlash mumkin.

*Birinchi bosqich* – musiqiy asar bilan tanishuv va ijrochilik rejasini shakllantirish bo'lib, ustozona tajribaga asoslanadigan bo'lsak, dastlab asar bilan tanishib, umumiy tasavvur hosil qilinadi. Undan keyin esa ijrochilik rejasi shakllanadi. Ijrochilik rejasi quyidagilarda o'z aksini topadi:

- a) asarning janri va shakli;
- b) asar tonalligi;
- v) asardagi qismlarning sur'ati va xarakteri (quvnoq, g'amgin, hazil, qahramonona

va hokazo);

g) qaysi davrda yozilganligi va kompozitor ijodiga ta'rif;

d) ijrochi sozandaning shaxsiy jihatlari, ya'ni ijrochi tafakkurining shakllanishi, yangi asarni o'rganishda o'qituvchining tutadigan yo'li, o'quvchining fikrlash doirasi, shaxsiy imkoniyatlari va qarashlari kabilar kiradi.

*Ikkinchi bosqich* – asarni ijro qilish rejasini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, eng asosiy bosqich hisoblanadi. Bunda kuy matni aniqlanadi, shtrixlar, asosiy ijrochilik va badiiy vositalar ko'rib chiqiladi. Chunki o'sha vositalar yordamida asar mazmuni va obrazi ochib beriladi. Musiqiy asarlar ustida ishlashda kuy rivoji va undagi jumlar, davriyalar, avjlar, kuy qismlari va boshqa tayanch nuqtalar aniq belgilanadi. Shuningdek, asarning texnik jihatdan sadolanishi, murakkab joylari belgilab olinadi va bo'laklarga bo'lib nota bilan o'rganiladi.

Ushbu jarayonda o'z ijrosini magnit yozuvida eshitgan holda tanqidiy baholash, asarning qiyin joylarini sekin sur'atda chalish tavsiya etiladi. Sozanda kichik bo'laklar ustida qancha ishlamasin, asarning bir butunligini esdan chiqarmasligi kerak va ba'zida butunicha chalib tasavvurini yanada boyitib borishi maqsadga muvofiqdir.

*Uchinchi bosqich* - musiqiy asar ustida ishlashning yakuniy bosqichi bo'lib, asarning badiiy maqsadlarini, uning qismlarini chuqur yod olish, badiiy vazifaning pirovard natijalarini aniqlash va o'rganilgan qismlarni bir butun holga keltirish va ijro ifodasini takomillashtirishdan iboratdir. Bunda fortepiano jo'rliqi, ayniqsa, jo'rnavoz bilan hamohang bir-birini chuqur his qilgan holdagi umumiy bir butun ijroni amalga oshiruvchi bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda o'qituvchining o'zi mazkur asarni chuqur bilishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Radjabova, G. M. The educational value of oral folk art for preschoolers. European research, (1), 75.
2. Rajabova, M. G., Makkaeva, R. S. A., & Mahluff, A. (2021). Strategic framework for sustainable enterprise development. In Sustainable Development of Modern Digital Economy: Perspectives from Russian Experiences (pp. 35-43). Cham: Springer International Publishing.
3. Rajabova, M. (2021). O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH YO'LLARI VA SAMARADORLIGINI VAHOLASH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
4. Rustamova, I. K., Abdullayev, R. A., & Xolmirzayeva, M. F. (2020). Study of depression and anxiety prevalence in patients undergoing acute myocardial infarction. Вестник Казахского национального медицинского университета, (2-1), 628-629.
5. Amanbayevich, K. E. (2022). PHYSICAL AND MENTAL PRINCIPLES OF PREPARING TRADITIONAL SINGERS FOR LARGE ASHULLA PERFORMANCE PROCESSES. Scientific Impulse, 1(4), 288-291.

6. Arzikulovich, N. E. (2022). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF EXECUTIVE SKILLS IN THE NAY INSTRUMENT. *Scientific Impulse*, 1(4), 292- 296.
7. Bakhritdinova, F., & Kangilbaeva, G. (2022, June). Features of the angiography of the eye bottom in patients with diabetic retinopathy. 24th European Congress of Endocrinology 2022.
8. Amanovich, K. E. (2022). TRADITIONAL SINGING AND TRADITIONAL MUSIC SKILLS. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(2), 2
9. Хо'jageldiyeva, M. (2021). Music as a Science and its peculiarities. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*.
10. Хо'jageldiyeva, M. (2021). Dutar national instruments and performance methods. *Analytical Journal of Education and Development*, 1(06).
11. Qizi, K. M. E., & Ugli, C. S. N. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 67-71.
12. Khojageldiyeva, M. E., & Sayfiddinova, S. A. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE WORD DUTAR AND METHODS OF ITS PERFORMANCE. *Экономика и социум*, (4-2 (95)), 211-214.
13. Хо'jageldiyeva, M. Musiqa madaniyati fanining mazmuni hamda musiqa ning bola tarbiyasida tutgan o'рни. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*.
14. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923.
15. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 10, 13-15.
16. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563- 566.
17. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563- 566.
18. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923.
19. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 10, 13-15.
20. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563- 566.
21. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923

22. Kho'jageldiyeva, M. Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2(4).
23. Pardayevna, H. N. (2022). MUSIC LESSONS THROUGH SCHOOL AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ARE WAYS TO INCREASE STUDENTS' COPING SKILLS. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(3), 127-130.
24. Akramovna, S. S. (2021). Dutar National Instruments and Performance Methods. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 329-331.
25. ED Uktamovna. (2023). [FORM, METHODS AND MEANS OF FORMING CHILDREN'S MUSICAL ABILITY](#). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 19 (8), 58-62
26. HN Pardayevna. (2023). [UMUM TA'LIM MAKTABLARI "MUSIQA MADANIYATI" DARSLARINING MAZMUNI](#). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 19 (8), 63-66.
27. CS Nasriddin o'g'li (2023). [CONTENT OF MUSIC CULTURE LESSONS AND ELEMENTS ORGANIZING THE MUSIC EDUCATION SYSTEM](#). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 18 (8), 72-77